

AYOL VA UNING JAMIYAT HAYOTIDAGI O'RNI HAMISHA MUHIM MEZON BO'LIB KELGAN.

Har qanday davlat va jamiyat taraqqiyoti bir qator omillar asosida yuz beradi. Bu jarayonda ayollar, ularning ijtimoiy-siyosiy munosabatlardagi ishtiroki, huquq va erkinliklari amalda ta'minlanganligi masalasi – davlatlar rivojining hamda demokratiyaning muhim indeksi sanaladi. Zotan, ayol va uning jamiyat hayotidagi o'rni hamisha muhim mezon bo'lib kelgan.

Har qanday ijtimoiy tuzilma asosida ayollarning reproduktiv imkoniyatlari bilan bir qatorda yangi avlodning shakllanishi va rivojlanishida ham ularning o'rni beqiyos. Jamiyatda xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlarini ta'minlashning asosiy prinsiplari mavjud bo'lib, bular qonuniylik, demokratizm, xotin-qizlar va erkaklarning teng huquqliligi, jins bo'yicha kamsitishga yo'l qo'yilmasligi, ochiqlik va shaffoflikdir.

Dunyo mamlakatlari qatorida va xalqaro hamjamiyatda munosib o'ringa ega bo'lgan O'zbekistonning davlat va jamiyat sifatidagi taraqqiyoti silsilasida ayolning o'rni, uning siyosiy va huquqiy madaniyati alohida ahamiyat kasb etadi.

Bugungi globallashuv jarayonida yangi avlodning har qanday sharoitga nisbatan faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish masalasida xotin-qizlarning o'rni va roli har qachongidan muhim. Shu bois islohotlarning asosiy mazmuni ham xotin-qizlarning yangi g'oya va tashabbuslar bilan chiqishlarini qo'llab-quvvatlash, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan sa'y-harakatlar, o'zgarishlar va ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda ularning faol ishtirok etishlarini ta'minlashdan iborat. Zero, inson qadrini ulug'lash, avvalo, ayolga hurmat va ehtirom, mo'tabar onalarimizni e'zozlash, munis opa-singillarimizni qadrlash orqali ro'yobga chiqadi, desak ayni haqiqatni aytgan bo'lamiz.

Ta'kidlash joiz, bugungi kunda Yurtboshimiz boshchiligida Yangi O'zbekistonda Uchinchi Renessans poydevorini bunyod etish sari dadil qadamlar qo'ymoqdamiz. Binobarin, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar ayollarning baxti asosiga qurilmoqda, desak adashmagan bo'lamiz.

Sir emaski, yangi Uyg'onish davri, avvalo, ilm-fanning taraqqiyotiga, milliy ma'naviyatning mustahkamligiga bog'liqdir. Mazkur o'tkir haqiqatni chuqur his qilgan holda xotin-qizlarning ta'limi va ilm-fan bilan shug'ullanishlari uchun davlatimiz

tomonidan yangi imkoniyatlar yaratib berilmoqda. Jamiyatda ayollarni ilm-fanga ruhlantirish maqsadida yangi mexanizm – «Olima ayollar jamiyati» tuzilgani hamda uning faoliyatini qo'llab-quvvatlash va yanada rag'batlantirish uchun Davlat byudjetidan 50 milliard so'm ajratilgani barcha xotin-qizlarning ko'nglida jamiyatning eng faol qatlami – «olima ayol» bo'lishga intilishlarini yanada kuchaytirishi ayni haqiqat.

Hech shubhasiz, ayollarning jamiyat va davlat ishlarini boshqarishdagi ishtirokini to'laqonli ta'minlash, ularni ijtimoiy-iqtisodiy hamda huquqiy jihatdan qo'llab-quvvatlash borasidagi islohotlar yurtimizda gender tenglikni va teng huquqlilikni ta'minlashdagi ijtimoiy adolat namunasidir.

Bir so'z bilan aytganda, ayollarning taqdiri, buguni va kelajagi uchun davlat siyosati darajasidagi yuksak e'tiborning ifodasi bo'lgan bunday sharoitlar va imtiyozlar mamlakatimiz tarixida hali bo'lmagan. Bugun opa-singillarimiz qalbida jo'sh urayotgan shukronalik va yurtdan, Yurtboshidan minnatdorlik hissi amaliy faoliyatimizga ko'chib, har bir sohada yuksak natijalarga erishishga ruhlantirmoqda.

Ayollarga e'tibor chinakam davlat siyosati darajasiga ko'tarildi: uning huquqiy va institutsional asoslari tubdan takomillashtirildi.

Mamlakatimizda gender tenglikni ta'minlash, ayollarning ijtimoiy va siyosiy hayotdagi rolini oshirish faoliyati: ayollar huquqlari to'g'risidagi qonun hujjatlarini takomillashtirish; ayollarni himoya qilishning institutsional asoslarini takomillashtirish; aholining gender tenglik va ayollar huquqlari to'g'risida xabardorligini oshirish; huquqni qo'llash amaliyotida ularga rioya etilishini ta'minlash uchun mas'ul mansabdor shaxslarni tegishli huquqiy me'yorlar asosida o'qitish kabi asosiy yo'nalishlardan iborat.

Mamlakatimizda ayol qadrini yuksaltirish borasida amalga oshirilgan keng qamrovli islohotlar, albatta, bu borada huquqiy asoslar yaratilganligi va muntazam takomillashtirib borilayotganligi bilan hal qiluvchi ahamiyatga egadir. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 46-moddasida «Xotin-qizlar va erkaklar teng huquqlidirlar» deb belgilanganligi mamlakatimizda gender tenglikni ta'minlash, xotin-qizlarning jamiyat va davlat boshqaruvidagi rolini oshirish borasidagi tizimli islohotlar uchun bosh huquqiy asos bo'lib xizmat qilmoqda.

E'tirof etish kerak, so'nggi yillarda xotin-qizlarning huquq va qonuniy manfaatlarini ta'minlash, ularning jamiyatdagi rolini kuchaytirish, oila institutini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish ishlari yangi sifat bosqichiga ko'tarildi. O'zbekiston xotin-qizlarni har qanday kamsitish va tahqirlashlardan himoya qiladigan barcha asosiy xalqaro hujjatlar

Mazkur normativ-huquqiy hujjatlar quyidagi ijobiy jihatlari bilan alohida ahamiyatga ega: birinchidan, oila va xotin-qizlar bilan professional tarzda ishlashga ixtisoslashtirilgan yangi davlat organi – Oila va xotin-qizlar davlat qo‘mitasi tashkil etildi; ikkinchidan, xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash, ularning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish sohasidagi yagona davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari belgilab berildi; uchinchidan, xotin-qizlar bilan ishlashning yangi mexanizmi – mahallalarda xotin-qizlar bilan maqsadli va manzilli tartibda ishlash amaliyoti belgilab berildi; to‘rtinchidan, xotin-qizlar huquqlarini ta‘minlash hamda ularni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish maqsadida yangi huquqiy mexanizmlar – prokuratura organlarining ushbu sohasidagi qonunchilik ijrosi ustidan nazorati joriy etildi; beshinchidan, xotin-qizlarga ta‘lim olishlari, ilmiy-ijodiy faoliyat bilan shug‘ullanishlari uchun davlatning yangi kafolatlar va imtiyozlar paketi joriy etildi; oltinchidan, xotin-qizlarning tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, ularning munosib turmush kechirishlariga ko‘maklashishni nazarda tutuvchi amaldagi mexanizmlar takomillashtirildi; yettinchidan, xotin-qizlarning sog‘lig‘ini saqlash, xotin-qizlarga xos bo‘lgan kasalliklarni barvaqt aniqlash va oldini olish onalikni muhofaza qilishga qaratilgan yangi tizim joriy etildi; sakkizinchidan, xotin-qizlar bilan muloqot qilishning yangi mexanizmlari joriy etilmoqda va muloqotning yangi, samarali platformalariga asos solindi.

«Oila va xotin-qizlarni tizimli qo‘llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmon bilan 2022–2026 yillarda xotin-qizlarning mamlakat iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy hayotining barcha jabhalarida faolligini oshirish bo‘yicha Milliy dastur hamda Milliy dasturni 2022–2023 yillarda amalga oshirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar rejasi tasdiqlandi.

Ta‘kidlash kerakki, 2030 yilgacha bo‘lgan davrda BMT Global kun tartibining Barqaror rivojlanish maqsadlarini izchil amalga oshirish bo‘yicha tizimli ishlarni tashkil etish maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 21 fevraldagi 83-son qarori bilan tasdiqlangan «2030 yilgacha bo‘lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalar»ning 5-maqsadi – Gender tenglikni ta‘minlash va barcha xotin-qizlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish – mamlakatimizda xotin-qizlar va erkaklarning teng huquq hamda imkoniyatlarini ta‘minlashga qaratilgan islohotlar bilan hamohangdir.

Ushbu maqsadni amalga oshirish doirasida xotin-qizlarni kamsitishning barcha shakllariga barham berish, ularga nisbatan zo‘ravonlikning barcha shakllarini, shu jumladan, odam savdosi, jinsiy ekspluatatsiya hamda ekspluatatsiyaning boshqa shakllarini, erta nikohlar va zo‘rlab nikohlash holatlarini tugatish, xotin-qizlar siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy hayotning barcha bosqichlarida har tomonlama ishtirok etishlarini hamda qaror qabul qilishda yetakchilik qilishlari uchun teng imkoniyatlarni ta‘minlash, reproduktiv salomatlikni asrash sohasida umum qamrovli tibbiy-sanitariya yordami

ko'rsatish uchun sog'liqni saqlash xizmatlaridan umumiy foydalanishni ta'minlash va shu kabi 9 ta vazifa belgilandi.

Ushbu vazifalarni amalga oshirish maqsadida Oliy Majlis Senati tomonidan 2030 yilga qadar O'zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasi tasdiqlandi.

Sa'y-harakatlarning mantiqiy davomi sifatida 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida xotin-qizlarning huquq va qonuniy manfaatlarini ro'yobga chiqarishga doir qator maqsad va vazifalar nazarda tutildi. Jumladan, Taraqqiyot strategiyasining 5 ta maqsadida xotin-qizlar masalasiga oid vazifalar belgilangan. «Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash, ularning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta'minlash» deb nomlangan 69-maqsadida, jumladan, jamiyatda xotin-qizlarga tazyiq va zo'ravonlikka nisbatan murosasizlik muhitini yaratish, xotin-qizlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash ko'zda tutilgan.

Taraqqiyot strategiyasini «Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili»da amalga oshirishga oid Davlat dasturining 221, 232, 253, 254, 307, 308, 338-vazifalari bevosita yuqorida qayd etilgan maqsadlarni ro'yobga chiqarishga qaratilgan.

Ayollar borasida amalga oshirilgan sa'y-harakatlarning bugungi samarasi ushbu sohadagi institutsional asoslarini tubdan takomillash-tirish bilan uzviy bog'liq. Modomiki, mustaqillikning ilk davri – demokratik islohotlar boshlanishida gender tenglik masalasi va ayollarning jamiyatdagi roli naqadar muhim ekanligi 1991 yildayoq alohida davlat tuzilmasi – Xotin-qizlar qo'mitasi shakllantirilishi bilan yana bir bor o'z tasdig'ini topgan.

So'nggi yillarda bu yo'nalishdagi institutsional asoslar tubdan takomillashtirilib, Oliy Majlis Senati huzurida Xotin-qizlar va gender tenglik masalalari qo'mitasi tashkil etildi. Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash davlat maqsadli jamg'armasi joriy qilindi va 2022 yil 1 martdagi Prezident farmoni bilan Oila va xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash davlat maqsadli jamg'armasi sifatida qayta tashkil etildi. Senat Raisi Tanzila Norboeva boshchiligidagi dastlab Respublika xotin-qizlar jamoatchilik kengashi ish boshlagan bo'lsa, keyinchalik, ya'ni joriy yil 1 martdagi Prezident farmoni bilan Xotin-qizlarning jamiyatdagi rolini oshirish, gender tenglik va oila masalalari bo'yicha respublika komissiyasi tuzildi. Mana shu yilning mart oyida Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasi tashkil etildi.

E'tiborli tomoni O'zbekiston Respublikasi Gender tenglikni ta'minlash masalalari bo'yicha komissiyasining maqomi va vakolatlari qonun darajasida belgilandi. Jumladan, 2019 yil 2 sentyabrdagi «Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida»gi Qonunning 12-moddasida xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash sohasidagi yagona davlat siyosatini amalga oshirish, jamiyat hayotining barcha sohalarida xotin-qizlar va

erkaklarning haqiqiy tengligiga erishish, xotin-qizlarni ijtimoiy-huquqiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, onalik, otalik va bolalikni himoya qilish tizimini takomillashtirish, xotin-qizlarning erkaklar bilan teng ravishda ijtimoiy va ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar ko'rish, jinsi bo'yicha bevosita yoki bilvosita kamsitilganligi munosabati bilan hayotda og'ir vaziyatga tushib qolgan insonlar huquqlarini himoya qilish va ularga yordam ko'rsatish bo'yicha maxsus muassasalarni tashkil etish yuzasidan takliflar ishlab chiqish Gender tenglikni ta'minlash masalalari bo'yicha komissiya tomonidan amalga oshirilishi nazarda tutilgan.

Shuningdek, Komissiyaga gender siyosati amalga oshirilishini ta'minlashga doir vaqtinchalik maxsus choralar ko'rish va ularni bekor qilish yuzasidan Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritish, davlatning rahbarlik lavozimlariga ilgari surish chog'ida jins bo'yicha kamsitishga yo'l qo'ymaslik prinsipini ta'minlashga ko'maklashish, davlat organlarining jamiyat hayotining barcha sohalarida xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarga erishishga qaratilgan faoliyatini muvofiqlashtirish, teng huquq va imkoniyatlarni ta'minlash sohasidagi vaziyat monitoringini va tahlilini o'tkazish, jins bo'yicha bevosita yoki bilvosita kamsitish holatlarining oldini olish hamda ularni bartaraf etish yuzasidan takliflar ishlab chiqish, bu sohada ta'limga oid, axborot-ma'rifiy tadbirlarni o'tkazish yuzasidan fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va nodavlat notijorat tashkilotlar bilan hamkorlik qilish, ushbu yo'nalishdagi qonunchilik ijrosi ustidan nazorat olib borish, sohada ilmiy tadqiqotlarni tashkil etish kabi qator vakolatlar berilgan.

Bundan tashqari, jahon tajribasida birinchi marta har bir mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash, kambag'allikni qisqartirish bo'yicha ayollar masalalari bilan alohida, kompleks va manzilli ishlash maqsadida xotin-qizlar faoli lavozimi joriy qilindi.

Surxondaryo viloyati jinoyat ishlari

bo'yicha Oltinsoy tuman sudining

devonxona mudiri

O'.Xudoyberdiyev.